

Maqsuda QO'LDOSHEVA

ORZULI KUN


(She'rlar)

Qarshi
«Nasaf» nashriyoti
2007

84(59)6-5

Bedor qalbda sevinch va shodlik, mehr va samimiyat bahorning lik kunidek o'z taassurotiga ega bo'ladi. Bu bilinar-bilinmas qog'ozdagi musavvir chizgilari - ilk tasvir sevinch talpinishi- suvratlaridir.

Maqsuda Qo'ldoshevaning she'riyatga shaydo qalbi ana shu ifodalarni axtarib yo'lga chiqqan bo'lsa, ajab emas.



10 33976
0

Q 4702620202-43 43 - 2007
376 (09) 2007

M. Qo'ldosheva, 2007 йил.

ISBN 5-7323-0519-4

VATAN

Sening shabadangdan ufurar mehr,
Qalbimizda to'lar shuur va faxr.
Doimo senga yor oqibat qadr,
Tog'lari cheksizim ulug'vor Vatan.

Zamin uzra yangrar, farat bitta nom,
O'zbekiston bizga eng aziz makon.
Madhiyang kuylaymiz jo'shib chin dildan,
Kelajagi buyuk chamanim Vatan.

Kindik qonimiz to'kilgan maskan,
Ulug' Temurlarni ulg'aytgan o'lkam.
Buyuk bobolarga o'zing beshiksan,
Tarixi merosga tengsizim Vatan.

Gar men yiroqlarda bo'igan chog'imda,
Tunu kun uyqu kelmas mujgonimga.
Sog'inch hissi chulg'anar yuragimda,
Seni sog'inaman yurakdan Vatan.

Vatan men seni cheksiz sevaman,
Hatto jonimdan-da ustun ko'raman.
Tuproq'ing zarrasin tavof qilaman,
Mening hayotimning mazmuni Vatan.

Sen qalbimning to'rida yagonasan,
Sajdagohim, qiblagohim onamsan.
Menga doim suyanch bo'lgan otamsan,
Men uchun sen oilamsan Vatanim.

Nurafshondir kunimiz,
 Sokindir har tunimiz.
 Asrarmiz shu tuprog'in
 Axir Vatan uyimiz.
 Yovning qo'li yetmaydi,
 Yetsa omon ketmaydi.
 Chunki biz yurt posboni,
 Shu Vatanning qalqoni.

BIR QARICH TUPROG 'ING

Bir qarich tuprog'ing bizlarga aziz,
 Bir unga qilmasmiz xiyonat hargiz.
 Mayli, tunlarimiz o'tsin uyqusiz,
 Mayli zimistonga aylansin kunduz.
 Mayli boshimizdan yog'dirgin toshni.
 Sening quchog'ingda ungan dilbandmiz,
 Sening mehring bilan o'sgan farzandmiz.
 Umrimizni senga atagaymiz biz,
 Vatan seni qo'riqlashga
 Biz doim shaymiz,
 O'g'lonlar -
 Qalblarida jodir Vatan,
 Vatan-chun-jon degaymiz.
 Askarlikni ulug' bilgan,
 O'zbekimning mard o'g'loni.
 Dushmanlarga turgan qarshi,
 Mard qalqoni el yurti
 Doim asrar elni mudom.
 O'z yurtimning alp o'g'loni -
 Vatan uchun ichgandir qasam.

MUSTAQIL O'ZBEKISTONIM

Sening qarich yering asrar mardlaring,
Sen uchun doimo qalqon alplaring.
Senga jonin berar hatto Barchining,
Jondek aziz mustaqil O'zbekistonim.

Ona allasida rangindir jumlai jahon,
Tiz cho'kib tuprog'ing o'parman har on.
Ozod xalq tilida faqat bitta nom,
Mening hur, mustaqil O'zbekistonim.

Bugungi dovrug'ing olamni kezar,
Senda har bir millat do'stu birodar.
Xalqlar uchun doim ochiqdir bag'ring,
Millatparvar mustaqil O'zbekistonim.

Sen mening bog'imda ochilgan maysam,
Onam quchog'idek bag'ri issiqsan.
Sen menga muborak kaba tillamsan,
Tengsizim mustaqil O'zbekistonim.

Bugun o'n besh yoshga to'libsan erkim,
Seni qarog'ida asraydi xalqim.
Sen bilan doimo to'kisdir baxtim,
Barqaror mustaqil O'zbekistonim.

INSON

Ko'klamlarda termulib uzoq,
Yulduzlarga boqib qolaman.
Savol berib o'zimga shu choq,
Javob uchun o'yga tolaman.

Inson o'zi nega yaralmish,
Dil to'rida yangrarmi xonish.
Unga begonadir hayotdan nolish,
Inson bo'lish nega bizga atalmish?

Ba'zilar insonlik nomini oqlar,
Yaxshilar qo'lida yashnaydi bog'lar.
Kimlardir o'z nomin bir umr dog'lar,
Ularning vijdonin cho'qiydi zog'lar.

Axir nega barcha inson teng emas,
Ba'zilar ne uchun va'dada turmas.
Dunyo yaxshilar bilan hech so'nmas,
Nega barcha inson yaxshi bo'lolmas.

Men osmonga boqayotib o'zgacha,
Xayolimni fikr chulg'ar turlicha.
Shunda o'ylab javob topdim savolga,
Hayot yaxshi yomon bilan qiziqda.

ONAMNI ASRASIN

Qalbimda yangraydi bir navo,
Qarshimda go 'yo bir farishta.
Bu zotga men telbadek shaydo,
Onamni asrasin xudo.

Hayotim, mamotim onamdir,
Qarshimda onam parvonamdir.
Onamsiz vujudim yonadir,
Onamni asrasin xudo.

Mayli men ne bo'lsam bo'layin,
Faqat men onam-la qolayin.
Bir umr duosin olayin,
Onamni asrasin xudo.

Omansiz kerakmas dunyo,
Onasiz orzular bir ro'yo.
Rohatim ko'rsinlar doimo,
Onamni asrasin xudo.



ONA

Onajon sizga men azoblar berdim,
Qadringizga yetmay beparvo edim.
Sizni farzand bo'lib sevintirmadim,
Hatto shirin so'zim sizdan ayadim.

Gohida gar uyda bo'lmasam oqshom,
Deydi: qachon uyga qaytarkan bolam.
Men kelguncha tunni bedor o'tkazgan,
Ortimdan zorlangan bechora onam.

Do'stlarimning bari yuz o'girganda,
Endi qadringizni sezmoqdaman men.
Endi armon ichra yolg'iz qolganda,
Bugun poyingizga tiz cho'kaman men.



SIZ BILAN

Siz bilan boshlanur nurli bir olam,
Shu bois ming bora tahsin aytgayman.
Sizning mehringizni qalbdan sezgayman,
Mening munisginam, azizim onam.

Onalar dilida balqigay ziyo,
Hech ranjimang siz bizdan also.
Sizlar uchun jon-u, tanimiz fido,
Shirin hayotimiz mazmuni onam.

Farzand vujudimda qalqir ehtirom,
Men faqat beroldim shirin bir kalom.
Lekin yuragimda sizga mehrim jam,
Olamning panohi jonajon onam.

Gar sening boshinga tushsa bir kulfat,
Faqat bir zot qolgaydir yonigda albat,
Go'yo olam senga ko'rinsa zulmat,
Yo'lingda nur bo'lgay mo'tabar onam.



ONAM BORKI...

Onam borki, ustim butun, qornim to'q,
G'amlarimda onadayin yupanch yo'q.
Siz-la qalbim dard neiligin bilmaydi,
Siz-la olam qorong'ulik ko'rmaydi.

Yashashim mumkindir molu davlatsiz,
Hatto yashash mumkin do'stlar-u yorsiz.
Sizsiz menga bo'lar borlik qadsiz,
Onajon, men sizsiz qanday yashardim.

Onajon! mushfiqim, mo'tabarimsiz,
Hech bir zot hech qachon sizday bo'lolmas.
Hatto do'stlarim ham dardim tushunmas,
Siz makkatillomsiz, sajdagohimsiz.

Siz hissiz qalblarga mehr berasiz,
Vafo, sadoqatda o'rnak bo'lasiz.
Tog'lar bardoshni sizdan qarz olsin,
Siz buyuk qudratga ega onasiz.



TUNLAR JIM...

Tunlar jim, hayot sokindir bu kun,
Yolg'iz mening qalbim unsiz yig'laydi.
Inson qismatiga achinib bu tun,
Tun ham toqat tilar tong hech otmaydi.

Hayot g'alatidir, g'alati -turfadir odam,
«Mish-mish»dan chiqmaydi uning bir boshi.
Qayerda, qay vaqtda bo'lmasin har dam,
Unga doim bo'lar soya yo'ldoshi.

Bu dunyoda mehr ba'zida so'nar,
Bir-biriga hurmat so'nmoqda butkul.
Qalbidagi g'azab olovdek yonar,
Inson hayotining suvrati ko'ngil.

MEHR SAXOVATDA...

Mehr sahovatga o'zing chorlagan,
Go'yo oftob misol o'zing porlagan.
Bu dunyoda aziz yagonadirsan,
Bizni kelajakka boshlagan onam.

Deysan: bolam o'qi, izlagin doim,
Senga yo'ldosh bo'lsin iqbol ilohim.
Axir seni bir kun kutajal olam,
Bu yorug'olamda mo'tabar onam.

Ona so'zin aytganda to'lg'onar yurak,
Hattoki arziydi bosh egsa falak.
Murg'ak qalbimizga mehridir tirgak,
Iqbol-saodatdan so'zlagan onam.

OTA

Orzularim osmon qadar ko'kni quchar,
Niyatlarim olislarga qushdek uchar.
Dildagi barcha armonlarim ketar,
Sizni baxtii qila olsam otajonim.

Siz bizlarning pushti panoh orimizsiz,
Gar tebransak, bizga suyanch tog'imizziz.
Suvsiz qolgan cho'limizning bog'idirsiz,
Biz niholni ulg'aytirgan otajonim.

Umringizni farzand deya o'tkazdingiz,
Shu farzandni siz voyaga yetkazdingiz.
Endi ko'ring bizlarning ham rohatimiz,
Jannatlarning bo'g'bonisiz otajonim.

Olloh bersin umringizga umr qo'shib,
Sizga aytsin evarangiz jo'shib qo'shiq.
Onam bilan baxtii bo'iing yuzdan oshib,
Bizlar uchun siz sog' bo'iing otajonim.



HUSAN ESHMUROD

Bugun Oqirtmada hayqirar nido,
Bu ohi zorlarni eshitmas xudo.
Tog'dagi gullar ham so'libdi go'yo,
Bu dunyoni tark etgan Husan Eshmurod.

Bor dardi hasratin she'riga solgan,
Bulbullar ovozi kuylashdan qolgan.
Shogirdingiz qabringizni quchib olgan,
Erta ketgan mehribon Husan Eshmurod.

O'tsa hamki qancha oy-u yillar ham,
Qalbimizda qolajaksiz siz hardam.
Xotirangiz unutmasmiz biz bir dam,
Erta so'ngan shoir Husan Eshmurod.




MOMOQALDIROQ

Yomg'ir yog'ar, yomg'ir tinchgina sokin,
Mening qalbim orzularga berilar.
Derazam ortidan oqqancha sekin,
Yomg'irlar oynadan sirpanadilar.

Osmonga boqaman qorong'u tundeK,
Birdan vujudimni chulg'aydi qo'rquv.
Momoqaldiroqning sadosi kelar,
Mening yuragimga solgancha qayg'u.

Momoqaldiroqning gumburlaridan,
Tabiat o'zini orqaga tisarib tortar.
Faqat yerning titroq qo'rquvlaridan,
Qo'ziqorinlarga basma-bas chiqar.



BAHOR

Bahor keldi to'kib yoshlarin,
Bulutning to'kilar g'ubori.
Ko'kardi daraxtning shoxlari,
Tugamasdan qishning ifori.

Yaproqlarda ajib go'zallik,
Go'yo bahor fasl malagi.
Atrofda o'zgacha bunyodlik,
Hapriqadi inson yuragi.

Bahor keldi yangicha xayot,
Irmoqlar kuylaydi qalbimda.
Yurakda uyg'onar nissiyot,
Bahor sig'mas ko'ngil baytimda.



OMONAT

Men bilmayman hali ertangi kunim,
Hayot charxpalagi nelarga boshlar.
Qay tomonga boshlar tubsiz bu yo'lim,
Orzu kelajakka qadamin tashlar.

Hayot sinovlidir, o'tkinchi dunyo,
Ne-ne mashaqqatlar bisyor yo'limda.
Barcha tashvishlarim o'tkinchi ro'yo,
Baxt uchun kurashmoq bari qo'limda.

Ba'zilar baxtlidir, ba'zi birlar xor,
Kimlardir mehrga tashnadir nochor.
Yana kimdir mehribonlardan bezor,
Bu barchasi sinov, o'tkinchi diydor.

Mushtipar onangdan qarg'ishga qolma,
Hali yosh umringning zavoli bo'lma.
O'zingni majburan do'zaxga solma,
G'animat dunyoda baxt yo'lin izla.

Omonat dunyoning qadriga yetgin,
Do'stlaring ko'nglini bir dam shod etgin.
Barcha yomonligu nafratdan kechg'in,
Bu dunyo bag'riga ulug' nom bitgin.

ZULMATNING QA'RIDA

Zulmatning qa'rida qolgan gul misol,
Dunyo zahmatidan ichib boraman.
Men o'zligimdan qolib parishonhol,
Bu keng olamga ham sig'may qolaman.

Osmoning cheksizdir, bag'ring tubi yo'q,
Quchog'ingda menga bir joy bormikan.
Oy-u yulduzlarni sig'dirgan bag'ring,
Mendek zarrachaga balki tormikan.

Ey falak, ey zamin, qancha insonga,
Quchog'ini ochgan mehribon bir qalb.
Men bir mitti gulman, rahm et menga,
Kaftga sig'dirsang bas, qalban ardoqiab.



SHE'RIM

Meni o'ylagan mehribon do'stlar,
Yuragimdagi muborak so'zlar.
Yo'llarda qolgan mening izlarim,
Doim oldinlab boring she'rlarim.

Yuzimga yomon so'z aytsalar qo'rqmang,
Men tomon ig'volar otsalar qo'rqmang.
Bor yukin ustimga ortsalar qo'rqmang,
Sira ortda qolma olg'a bor she'rim.

Yomonlarni o'tda yondirgan cho'g'san,
Dushmanlardan meni asragan o'qsan.
Sen mening hayotda ishonganimsan,
Zinhor untilmoqdan tolmagin she'rim.

BIRINCHI QOR

Naqadar ajoyib yog'moqdadir qor,
Tabiat burkandi oppoq libosga.
Qalbim ham sokindir, qishdek beg'ubor,
Armon bilan birga orzu kezmogda.
Qor qo'lga qo'nar-u bir pasda erir,
Negadir uzoq vaqt turmas qo'limda.
Yurakda iliq his betinim urar,
Qorlar oppoq orzu to'shar yo'limga.
Qor yog'mogda bugun, yog'mogda orzu,
O'zgacha tarovat baxsh etadi u.
Muzdek armonlarim eriydi takror,
Qor parchalaridek sochib har yoqqa.
Bugun birinchi qor yog'mogda asta,
Qalbdagi qayg'u ham erir bir pasda.
Shunday jannatmakon O'zbekistonda,
Yana yangi yilda orzu yog'mogda.

QUYOSH BOTGANDA

Keng osmon. Quyosh nur hadya etar,
Go'yo olam zarga burkanib ketar.
Hatto mo'jizaga o'xshab tuyular,
Quyosh ta'rifiqa ojizdir tillar.

Ko'nglim taskin topar quyosh nuriga,
Ichimda yig'layman quyosh botsa gar.
Zulmatda hattoki toshqin bo'ronda,
Men yolg'iz qolgandek bo'laman shunda.

Mening ko'z yoshimdan jonlanar olam,
Zulmatli osmonda bulutlar to'lar.
Ko'z yosh to'kar osmon, titraydi qalbim,
Menga qo'shilishib yig'lar bulutlar.

Qorong'i tunlar ham bo'ladi uzun,
Bu tunlar men uchun tuyular mahzun.
Kunduzni sog'inib kutadi ko'zim,
Quyosh botganida to'xtaydi so'zim.

Ertaga quyoshim chiqar qaytadan,
Yana quvonchlarga to'ladi qalbim.
Ko'zimni uzolmay qarayman tongga,
Men istardim quyosh hech ham botmasin.

Quyoshning botishin istamam sira...

SEVGI BU...

Sevgi bu hayotdir, sevgi bu xayol,
Nelarga boshlaydi, nedan toldirar.
Tunlaring ham o'tar o'y birla bedor,
Sevgi vujudingni cho'g'dek yondirar.

Zabon sevgi nomin aytganda takror,
Yurakda namoyon bo'lar hayajon.
Sevishgan damlaring qaytmas betakror,
Hatto fidoga ham tayyor turar jon.

Sevgi qalbga kirar so'zsiz, so'roqsiz,
Hatto yuragim ham menga bo'ysunmas.
Go'yo aqlim ham yashayolmas sensiz,
Sevgining yonida tilga so'z kelmas.

SEVGI

Muhabbatga oshna har bir yurakning,
Vujudi yonadi olov misoli.
Bir zum hayolidan ketmaydi uning,
Go'zal sevgisining bo'lar asiri.

Sevgiga tashna qalb ko'rsa xiyonat,
Dunyo ko'zlariga tor bo'lib qolar.
Ushanda sevgi ham ekan omonat,
Deya ovunadi bu xasta qalblar.

Bir kun sevgisiga zorlar bo'ladi,
Lining yo'llarida bedor qoladi.
O'sha kunlar kelsa kech bo'lar afsus,
Uning ko'z yoshlari dengiz bo'ladi.

MEN DUNYOGA KELDIM

Men dunyoga keldim, dilda bir tilak,
Otamning orini saqlamoq uchun.
Men dunyoga keldim, pokiza yurak,
Onamning orzusini ushalmoq uchun.

Men dunyoga keldim, aslini olsak,
Oilam ishonchini oqlamoq uchun.
Men dunyoga keldim, aslini olsak,
O'z o'zimni hayotdan topmoq uchun.

Xalqimning xizmatini qilish farzidir,
Vatanga mehrimni berish qarzidir.
Doim ular bilan bo'lish orzumdir,
Meni ular uchun yaratdi taqdir.

Men dunyoga keldim, dilda bir istak,
Barchaga muhabbat ulashmoq uchun.
Men dunyoga keldim, chorlashim kerak,
Ezgu niyatlarga birlashmoq uchun.



KO'NGIL

Ko'ngil ko'chalaring bunchalar uzoq,
Har bir qadamlarda qo'yilgan tuzoq.
Qalbimni qiynaydi ming bir istirob,
Mashaqqatsiz baxtga bormi erishmoq
Shonli ezgu baxtdir, menga katta baxt,
Ko'changdan o'taman har kuni boqib.
Yo'lingga ko'z tikib turarman doim.
Qalbim faqat senga talpinib yonib.
Ko'ngil sog'inchiga ketaman botib,
Ko'ngil ko'chalaring bunchalar uzoq.

DUNYO

Yam-yashil bog'larga yana kuz keldi,
Kunlar soat sayin uchdi-yu yeldi,
Durkun yaproqchalar xazon bo'ldi,
Chunki bu o'tginchi g'animal dunyo.

Bugun kimlarningdir uyida bazm,
Kimningdir uyida bo'lmoqda aza
Bu yaxshi-yomon kun bo'ladi hazm,
Chunki barchamizga mezbondir dunyo.

Kimningdir ko'zida to'ladi yoshlar,
Kimningdir mehridan eriydi toshlar.
Kamondek terilgan qopqora qoshlar,
Bu juda ajib, g'arib bir dunyo.

Duyoga keldi yangi bir go'dak,
Olloh inobati ila tug'ildi murg'ak.
Kimningdir yulduzi so'ndi umr bir ertak,
Bu bir dunyodir, dunyodir, dunyo.

SALOM SAMARQAND

Assalom ey mening tojim Samarqand,
Tubsiz osmonimda chaqna, nurlar soch.
Axir sen tufayli porloqdir yuzim,
Axir sen tufayli qalbmida quvonch.

Asrlarga ro'paru maqbara turar,
Ular tengsizdirlar bari betakror.
Unda kelajakning siymosi porlar,
Ajdodlaring ruhi bo'lsin ma'dafkor.

Sen mening g'ururim, mening faxrim,
Orzuim, armonim ham q'utlug' sha'nim.
Sen yo'lim yoritgan so'nmas chiroqsan,
Mening mustaqil hur O'zbekistonim.

Yashnayver Samarqand, yashna Registon,
Jahonda yulduzdek porlagan diyor.
Noming dunyo ichra bo'lgandir doston,
Assalom Samarqand, jonajon diyor.

Samarqand tarixing jo'shib kuylayman,
Havas ila porloq kuning o'ylayman.
Sen haqingda tinmay tunu kun suylayman,
Sajdagoh makonsan, qiblagoh o'lkam.

Samarqand merosing ko'kka etadi,
Sen ulug' mangulik yo'lidadirsan.
Senga majnuntol ham ta'zim etadi,
Sen doim shu xalq qalb- shuuridirsan.

Sulton avlodisan qad-qomatli yurt,
Bag'ringdan nur olar har qanlay inson.
Mehring shunchalar beg 'ubor, buyuk,
Qay tomonga boqmay bo'stonsan, bog'san.

Samarqand, Samarqand yarqiroq toshing,
Shohizinda seni egilmas boshing.
Senga qutlug' bo'lsin muborak yoshing,
Jamoling ko'rgani keldik Samarqand.

Uyg'onar Samarqand, uyg'onar Turon,
Orzu umid to'la tonglar otadi.
Samarqand zamini etar bizni rom,
Unda ulug' zotlar xoki yotadi.

Qadimiy navqiron shahrim Samarqand,
Buyuk ajdodlarga o'zing beshiksan.
Alp Islomlarin ulg'aytgan o'lkam,
Xalq va millatlarga ochiq eshiksan.

Sening quchog'ingda yashab Temurbek,
O'z baxtini topgan Mirzo Ulug'bek.
Sening madrasangga bosh egay bugun,
Ro'yi zaminimsan, ulug' Samarqand.

Senda yangrar yurtlar-Sharq taronasi,
Yurakni titratar shashmaqomlari.
Jahonni lol etar kuy va so'zlari,
Hatto o'zgachadir subh shomlari.

Senda allomalar topgandir kamol,
Go'zal Bibixonim Samarqand naqshi.
Unda abadiydir balqigan iqbol,
Bu kunlar qaychalar yurakka yaqin.

REGISTON

Qadim Registonga tushganda yo'lim,
Borganimda qalbim quvonchga to'lar.
Registonning ulkan binolarin,
Ko'rganimda dunyo go'zal ko'rinar.

Registon madrasangga egay boshim,
Ulug'beging ko'rsam g'ururum oshar.
Kundan-kunga Sherdor ochar chiroyin,
Tillakoring yodgor meros yashar.

Sen qadim Samarqandga toju taxtsan,
Senda ajdodlar pok ruhlari yashar.
Sen o'zbek xalqining ulug' baxtisan,
Sen tomon intilar doimo bashar.

Registon butun xalq senga oshiqar,
Betakror husningga to'ymoqni istar.
Senga havas ila qalban boqishar,
Mehmon do'st xalqingni ko'rmoqni istab.



Sochlarimni silaydi shamol,
Elkamga tushirar ro'molim.
Yurakda hayajon, aqlim lol,
Bo'y taratar gullar ifori.

TO'RTLIK

Bu dunyoning o'zi bir karvon,
Hech kim boqiy emas dunyoda.
Bu dunyodir tomsiz bir ayvon,
Ne tushishin bilmaymiz boshga.



MUNDARIJA

Vatan.....	3
“Nurafshondir..”.....	4
Mustaqil O‘zbekistonim.....	5
Inson.....	6
Onamni asrasin.....	7
Ona.....	8
Siz bilan.....	9
Onam borki.....	10
Tunlar jim.....	11
Mehi-saxovatga.....	12
Ota.....	13
Husan Eshmurod.....	14
Momaqalldiroq.....	15
Omonat.....	16
Zulmatning qa'rida.....	17
Sherim.....	18
Birinchi qor.....	18
Quyosh botganda.....	19
Sevgi.....	20
Sebgi bu.....	20
Men dunyoga keldim.....	21
Ko'ngil.....	22
Dunyo.....	22
Salom Samarqand.....	23
«Uyg'onar Samarqand».....	24
Registon.....	25
«Sochlarimni».....	26
To'rtlik.....	26

ADABIY-BADIIY NASHR

MAQSUDA QO'LDOSHEVA

ORZULI KUN

She'rlar

Muharrir: G. Xo'jaeva.

Texnik muharrir: Ch. Rahmonov.

Musahhih: G. Xo'jaeva.

Badiiy bezakchi: J. Norqobilov.

IB 1113

Terishga 17.09.2007 yilda berildi. Bosishga 20.09. 2007 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/32. Shartli bosma tabog'i-1,47. Shartli boyoq ott-1,53. Nashr bosma tabog'i-1,02. 53-2007-shartnoma. 74-buyurtma. 150 nusxada. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 180118, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.

Qashqadaryo viloyat matbuot va axborot boshqarmasi huzuridagi «Matbaa sexi»da chop etildi.

Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.